



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Maxmudov Asilbek Furqatjon o'g'li

Magistrant, "Bank ishi va auditi" mutaxassisligi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ilmiy rahbar: PhD, dots. *S.S. Nematulloyev*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomiulashtirishga oid nazariy, uslubiy va amaliy masalalar kompleks ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqotda "investitsiya", "kredit" va "investitsion kredit" tushunchalarining iqtisodiy mohiyati qayta ko'rib chiqilib, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi tizimli yondashuv asosida yoritilgan. 2021–2025 yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarining investitsion kreditlash amaliyotiga oid statistik tahlillar asosida kredit qo'yilmalari va yalpi ichki mahsulot o'sishi o'rtasidagi funksional bog'liqlik aniqlangan. "Asakabank" va "O'zmilliybank" banklari misolida banklarning investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi amaliy ishtiroki baholangan. Mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** investitsion kredit, tijorat banklari, investitsion loyiha, kredit riski, moliyalashtirish mexanizmi, investitsion kreditlash tizimi, kredit portfeli, risklar boshqaruvi, sindikatlashgan kredit, "loyihalar fabrikasi".*

ABSTRACT



This article comprehensively examines the theoretical, methodological, and practical issues of improving the investment project financing system of commercial banks. The study revisits the economic essence of "investment," "credit," and "investment credit" concepts, revealing their interrelationship through a systematic approach. Based on statistical analysis of Uzbekistan's commercial banking investment lending practices during 2021–2025, a functional relationship between credit investments and GDP growth is established. Using the examples of "Asakabank" and "O'zmilliybank," the practical participation of banks in financing investment projects is assessed. Scientifically substantiated proposals and recommendations aimed at addressing existing problems are developed.

Keywords: *investment credit, commercial banks, investment project, credit risk, financing mechanism, investment lending system, credit portfolio, risk management, syndicated credit, "project factory".*

1. KIRISH

Bugungi global iqtisodiy makonda investitsion kreditlar iqtisodiy o'sishning tarkibiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini kengaytirish, balki butun mamlakat miqyosida kapital qo'yilmalar hajmini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, investitsion kreditlar korxonalarda ishlab chiqarish bazasini texnik jihatdan yangilash, ilg'or va samarali texnologik yechimlarni joriy etish hamda mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish jarayonlarini zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlaydi.



Zamonaviy sharoitda tijorat banklari faoliyatida investitsion kreditlash strategik yo'nalish sifatida shakllanib, ularning uzoq muddatli aktiv operatsiyalar portfelining asosiy qismini tashkil etmoqda. Bunday kreditlar banklar uchun barqaror daromad manbai bo'lish bilan birga, risklarni diversifikatsiya qilish imkonini ham yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'kidlashicha, "Iqtisodiy o'sishga, avvalo raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi". Shuningdek, 2022–2026-yillarda mamlakatda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan.

Investitsion kreditlarga bo'lgan talab kundan-kunga oshib borayotgan bugungi kunda tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlash tizimini takomillashtirish zaruriyati ortib bormoqda. Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini ilmiy tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

"Investitsion loyiha" tushunchasi milliy iqtisodiy amaliyotda nisbatan yangi bo'lishiga qaramasdan, uning qo'llanish doirasi tobora kengayib bormoqda. Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijalari ko'rsatadiki, "investitsiya" tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, ular o'rtasida ayrim metodologik tafovutlar kuzatiladi (Valinurova, Kazakova, 2010; Neshitoy, 2006; Samuyelson, 1997; Keynes, 1978).



Mazkur tadqiqotda olib borilgan ilmiy tahlillar asosida "investitsiya" tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi:

Investitsiyalar — bu foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, qonunchilikda taqiqlanmagan faoliyat obyektlariga, kapitalning qiymatini saqlash va uni oshirish imkoniyatini ta'minlash sharti bilan, oldindan risk va samaradorlik darajasi baholangan holda, jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat tomonidan ma'lum muddatga yo'naltiriladigan moddiy, moliyaviy va intellektual resurslar majmuasidir.

"Kredit" tushunchasiga kelsak, adabiyotlarda u turlicha talqin qilinadi. I.T.Balabanov (2003) kreditlash tamoyillari muddatlilik, qaytarishlik va to'lovlilik tamoyillariga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. Sh.Z.Abdullayeva (2000) esa u qaytarib berishlik, muddatlilik, ta'minlanganlik, maqsadlilik, to'lovlilik va samaradorlik tamoyillariga asoslanishi lozim deb hisoblaydi.

Rossiyalik iqtisodchi-olimlar M.V.Alikayeva, L.O.Aslanova va boshqalar (2018) investitsion bank kreditini loyihaning qoplash muddatidan oshib ketmaydigan muddatga, odatda bir yildan kam bo'lmagan muddatga beriladigan maqsadli kredit sifatida ta'riflaydilar. Yablonskaya A.Ye. (2013) esa "korxonalarni moliyalashtirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli bank kreditlari investitsion bank krediti hisoblanadi" deb ta'riflaydi.

Lavrushin O.I. (2009) investitsion kredit muddati 6 yildan ortiq bo'lgan uzoq muddatli kreditlar deb ta'riflaydi va unda asosiy kapitaldan tashqari moliyaviy aktivlar va aylanma aktivlarni ham shakllantirish uchun talab etiladigan



mablag'lar kiritilishini ta'kidlaydi. Knyazev P.P., Klimenko M.N., Motornyuk D.V. (2019) tomonidan berilgan ta'rifda investitsion kredit bozor tamoyillariga, vaqt, risk va likvidlik omillariga bog'liqligi ochib berilgan.

Muallifning fikriga ko'ra, mavjud ta'riflarda quyidagi kamchiliklar kuzatiladi: investitsion kreditlash tamoyillarining to'liq inobatga olinmasligi, samaradorlik va differensial yondashuv tamoyillarining e'tibordan chetda qolishi. Shu asosda mazkur tadqiqotda quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi:

Investitsion kredit — bu bozor qonuniyatlari, vaqt, risk va likvidlik omillariga tayangan holda qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati obyektlariga foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadiga asoslangan investitsiya loyihasining qoplash muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda qaytarishlik, muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, maqsadli ishlatilish, samaradorlik va differensial yondashuv tamoyillariga amal qilgan holda kreditor tomonidan qarz oluvchiga taqdim etiladigan kredit.

3. TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalar va tijorat banklari kredit qo'yilmalari dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur davr mamlakat iqtisodiyotida strukturaviy o'zgarishlar, investitsion faollikning keskin ortishi va bank tizimining moliyaviy vositachilik rolining kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Jadval 1. Iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar va kredit qo'yilmalari dinamikasi (2021–2025)



Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
	YAIM hajmi (trln so'm)	61,2	041,9	261,8	535,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar (trln so'm)	2,2	24,2	89,9	35,0	91,1
Investitsiyalar/YAIM (%)	3,4	5,9	34,0	6,5	10,7
Tijorat banklari kreditlari (trln so'm)	10,6	67,4	11,6	20,0	00+
Kreditlar/YAIM (%)	16,8	16,2	4,4	3,7	1,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bank yillik hisoboti ma'lumotlari asosida tuzildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, YAIM hajmining 2,1 barobar oshgani iqtisodiy o'sishning barqaror makroiqtisodiy asosga ega ekanligini tasdiqlaydi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar 8 baravardan ortiq oshishi investitsion siyosatning faollashganini ko'rsatadi. Tijorat banklari kreditlarining YAIMga nisbati 12,8 foizdan 32,4 foizgacha oshgani bank tizimining iqtisodiyotdagi ulushi keskin kengayganini anglatadi.

Kredit qo'yilmalari va investitsiyalar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni tahlil qilish natijasida ular orasida **kuchli aloqadorlik** mavjudligi aniqlanadi. Bu esa iqtisodiyotda "**kredit – investitsiya – iqtisodiy o'sish**" zanjirining amalda ishlayotganini tasdiqlaydi. Biroq, kredit foiz stavkalarining yuqori darajada



saqlanib qolayotgani (2025-yilda o'rtacha 22,0%) va valyuta kursining izchil o'sishi investitsion faollikni cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

TIF "O'zmilliybank" AJ faoliyati tijorat banklarining investitsion institut sifatidagi rolini yaqqol namoyish etadi. 2024-yilda bank tomonidan umumiy qiymati 1,5 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 286 ta yirik investitsion loyiha moliyalashtirilgan. 2025-yilning birinchi choragida esa qo'shimcha ravishda 49 ta loyiha uchun moliyaviy resurslar ajratilgan.

Jadval 2. "O'zmilliybank" AJ ipoteka kreditlash dinamikasi (2020–2025)

Yil	Ipoteka kreditlari hajmi (trln so'm)	O'sish
2020	1,9	–
2021	3,2	+68%
2022	5,9	+84%
2023	8,5	+44%
2024	11,1	+31%
2025	12,1	+9%

Manba: "O'zmilliybank" AJ 2024–2025 yillar bo'yicha investitsion loyihalar hisoboti.

Bank xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham faol faoliyat olib bormoqda: Societe Generale, Natixis, Standard Chartered, Osiyo taraqqiyot banki va Xitoy davlat taraqqiyot banki kabi yetakchi moliyaviy institutlar bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan. London fond birjasida 411 million dollarlik obligatsiyalar

joylashtirilishi bankning xalqaro moliya bozoridagi faolligini sezilarli darajada oshirdi.

3.3. "Asakabank" ATB misolida kredit risklarini baholash

Jadval 3. "Asakabank" investitsion kreditlarining risk darajasi bo'yicha taqsimlanishi

Yil	Jami (mlrd so'm)	Standart (%)	Substandart (%)	Qoniqarsiz (%)	Shubhali (%)	Umidsiz (%)	Zahira (mlrd so'm)
2020	3 423,0	91,53	5,75	0,45	2,00	0,27	67,11
2021	5 318,7	92,85	5,74	0,36	0,92	0,12	63,26
2022	15 811,6	90,36	8,17	0,88	0,53	0,05	213,44
2023	24 750,4	87,20	12,20	0,29	0,19	0,12	329,53
2024	26 321,8	92,02	6,27	1,03	0,22	0,47	470,01

Manba: "Asakabank" ATB yillik hisobotlari asosida tuzildi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, bank investitsion kreditlarining katta qismi (87–93%) standart toifada saqlanib qolmoqda. Biroq, 2023-yilda substandart kreditlar ulushining 12,20% gacha oshishi va 2024-yilda umidsiz kreditlar ulushining 0,47% gacha ko'tarilishi kredit portfeli sifatini nazorat qilish tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Bank investitsion kreditlaridan olingan foizli daromadlar



– Monitoring tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va raqamli texnologiyalar integratsiyasining pastligi

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

4.1. Asosiy xulosalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. 2021–2025 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida "kredit – investitsiya – iqtisodiy o'sish" zanjirining amalda ishlayotganligi tasdiqlanmoqda. YAIM o'sishi bilan bir qatorda, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar 8 baravardan ortiq oshishi va tijorat banklari kredit qo'yilmalarining keskin kengayishi bank tizimining moliyaviy vositachilik funksiyasi sezilarli darajada kuchayganligini ko'rsatadi.

2. Investitsion kreditning boshqa kredit turlaridan asosiy farqli jihati sifatida uning qaytarilish manbai bevosita moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihasidan olinadigan pul oqimlari hisobiga shakllanishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

3. Kredit portfeli tarkibida investitsion yo'nalishdagi kreditlarning ulushi ortib bormoqda, bu iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda banklarning roli kuchayayotganini bildiradi.

4. Tijorat banklarida investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini cheklovchi asosiy muammolar tizimli xarakterga ega: uzoq muddatli moliyaviy resurslar yetishmovchiligi, foiz stavkalarining yuqoriligi,



monitoring tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va kadrlar salohiyatining yetarli emasligi.

4.2. Amaliy takliflar

Tadqiqot asosida tijorat banklarida investitsion kreditlash tizimini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

5. Integratsiyalashgan risk boshqaruvi modeli — loyihani baholash, qaror qabul qilish, monitoring va nazorat bosqichlarini yagona tizimga birlashtiruvchi model joriy etish.

6. "Loyihalar fabrikasi" instituti — tijorat banklari huzurida investitsion loyihalarni shakllantirish, texnik-iqtisodiy asoslash va moliyalashtirishga tayyorlash jarayonlarini yagona tizimda boshqarish.

7. Shartli kredit liniyalari mexanizmi — xalqaro va milliy moliya bozorlari imkoniyatlaridan foydalanish asosida uzoq muddatli resurslar jalb etish.

8. Ko'p omilli diagnostika tizimi — kredit ajratishdan oldingi bosqichda loyiha tashabbuskorlarining moliyaviy barqarorligi, pul oqimlari va biznes-modelining hayotiyiligini kompleks baholash.

9. Investitsion soliq kreditlari — AQSH va Rossiya Federatsiyasi tajribasidan kelib chiqib, investitsiyalar yetishmayotgan soha va hududlarda kreditlashni rag'batlantirish.



10. Raqamli monitoring tizimi — investitsion kredit olgan mijozning moliya-xo'jalik faoliyatini real vaqt rejimida onlayn nazorat qilib borish tizimini joriy etish.

11. Depozit siyosatini takomillashtirish — depozit stavkalarini iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasidan past bo'lmagan me'yorda belgilash tamoyilini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

12. O'zbekiston Respublikasining Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonuni. 2019-yil 25-dekabr. www.lex.uz.

13. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr. www.lex.uz.

14. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

15. Abdullayev Yo., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.

16. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit, banklar. – T.: Moliya, 2000.

17. Alikayeva M.V., Aslanova L.O. va b. Strategicheskoye razvitiye malogo biznesa. Monografiya. – Nijniy Novgorod, 2018.

18. Amanova N.U. Banklarning investitsion kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari. Magistrlik dissertatsiyasi. – T.: TMI, 2013.

19. Balabanov I.T. Banki i bankovskoye delo. – SPb.: Piter, 2003.



20. Beloglazova G.N. Dengi, kredit, banki. – M.: Yurayt, 2009.
21. Karimov N.G'. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007.
22. Kamilova I.X. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirish. "Xalqaro moliya va hisob" jurnali. – №6, 2019.
23. Knyazev P.P., Klimenko M.N., Motornyuk D.V. Bankovskie produkty i uslugi: Investitsionnoye kreditovaniye. – M.: Yevroaziatskaya nauchno-promyshlennaya palata, 2019.
24. Knyazeva Ye.G. Finansovo-ekonomicheskiye riski: ucheb. posobiye. – Yekaterinburg: Ural. Un-ta, 2015.
25. Lavrushin O.I. Bankovskoye delo. – 8-ye izd. – M.: Knorus, 2009.
26. Lavrushin O.I., Valenseva N.I. i dr. Bankovskoye delo. – 12-ye izd. – M.: KNORUS, 2016.
27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025 yildagi statistik byulleteni. www.cbu.uz.
28. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. www.stat.uz.
29. Qosimov M.S. Investitsiya loyihalari tahlili: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019.

